

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MONOLOGIK NUTQNI  
RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN  
FOYDALANISH AHAMIYATI**

**Abdullayeva Kirmizi Jumatayevna**

**University of innovation technologies 1-  
basqish talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda monologik nutqni rivojlantirish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Monologik nutq bola tafakkuri, muloqot madaniyati va ijodiy fikrlashining shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Maqolada interfaol metodlar, AKT vositalari, multimedia resurslari hamda o'yin texnologiyalarining nutqni rivojlantirishdagi samaradorligi ilmiy dalillar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, tarbiyachi faoliyatida innovatsion yondashuvlar, bolalarning mustaqil fikr bildirish, voqea-hodisalarni ketma-ket bayon etish va mantiqiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishning amaliy mexanizmlari ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** monologik nutq, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, AKT, multimedia, interfaol metodlar, maktabgacha ta'lim, nutq rivoji, innovatsion yondashuv.

**Аннотация:** В данной статье раскрываются теоретические и практические основы использования современных педагогических технологий в процессе развития монологической речи детей дошкольного возраста. Монологическая речь является важным фактором формирования мышления, коммуникативной культуры и творческих способностей ребенка. В статье проанализирована эффективность интерактивных методов, ИКТ, мультимедийных ресурсов и игровых технологий в развитии речи. Также представлены инновационные подходы в деятельности воспитателя, направленные на развитие у детей навыков последовательного изложения событий, самостоятельного высказывания мыслей и логического заключения.

**Ключевые слова:** монологическая речь, современные педагогические технологии, ИКТ, мультимедиа, интерактивные методы, дошкольное образование, развитие речи, инновации.

**Abstract:** This article discusses the theoretical and practical foundations of using modern pedagogical technologies to develop monologic speech in preschool children. Monologic speech plays a key role in shaping children's thinking, communication culture, and creative expression. The article analyzes the effectiveness of interactive methods, ICT tools, multimedia resources, and play-based technologies in supporting speech development. It also highlights innovative approaches that enable preschool educators to enhance children's skills in coherent narration, independent expression of ideas, and logical reasoning.

**Keywords:** monologic speech, modern pedagogical technologies, ICT, multimedia, interactive methods, preschool education, speech development, innovation.

Maktabgacha yosh davri bolalarning nutqiy, aqliy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishida eng muhim bosqichlardan biridir. Aynan shu davrda bola atrof-muhitni anglay boshlaydi, o'z fikrini ifodalashga, muloqotga kirishishga va til vositalaridan ongli foydalanishga intiladi. Monologik nutq — bolaning mustaqil ravishda fikr yuritishi, voqea-hodisalar ketma-ketligini izchil bayon qilishi hamda mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatini shakllantiruvchi muhim nutq faoliyati hisoblanadi[1]. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim mazmunining yangilanib borayotgani, ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlar kiritilayotgani zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishni

talab qilmoqda. Shuning uchun monologik nutqni rivojlantirishda interfaol metodlar, AKT vositalari, multimedia resurslari, didaktik o'yin texnologiyalari kabi ilg'or yondashuvlarning o'rni beqiyosdir.

Nutq-bu tilni ishga solish jarayonidir. Subyektning nutqiy faoliyati ichki vositasi va uni amalga oshirish usullari sifatida til va nutqni o'z ichiga oladi. Nutq bu psixik xodisa, kishilarning shaxslararo o'zaro muayyan hamkorligi sharoitlarida rivojlanadigan, individual xususiyatlarga ega bo'lgan shaxs mulkidir. Utildan farqli ravishda ijtimoiy-tarixiy sharoitlarda rivojlanadigan xalq ijtimoiy mulki hodisasidir.

Bolalarning monologik nutqi ta'limning keyingi bosqichlarida — o'qish, yozish, matn yaratish, mantiqiy fikrlash va ijodiy tafakkur jarayonlarining poydevorini tashkil qiladi. Nutqi yaxshi rivojlangan bola jamoadagi muloqotga tez kirishadi, o'z fikrini aniq ifoda eta oladi, mustaqil o'qish faoliyatiga tayyor bo'ladi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali bolalarning nutq faoliyatini faollashtirish va ularning monologik nutqini izchil shakllantirishdir[2].

Maktabgacha yoshdagi bolalarda monologik nutqning shakllanishi murakkab, bosqichma-bosqich kechadigan va bolaning til, tafakkur hamda ijtimoiy tajribasining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan jarayondir. Monologik nutq dialogik nutqdan farqli ravishda mustaqil, izchil, mazmunli va mantiqan bog'langan fikr bayonini talab qiladi. Shu sababli uning rivoji bolalarning lug'at boyligi, grammatik qurilish, nutqning fonetik jihatdan to'g'ri shakllanishi, obrazli tasavvurlar, emotsional-ta'sirchan idrok va fikrni rejalashtirish kabi ko'plab lingvistik unsurlarga asoslanadi. Lingvistik nuqtayi nazardan monologik nutqni shakllantirish uchun bola so'zlarni tanlash, gaplarni mantiqiy tartibda bog'lash, syujet qurish, sabab-oqibat aloqalarini tushunish, voqea va hodisalarni izchil yoritish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Psixologik jihatdan esa monologik nutq bolaning xotirasi, diqqatning barqarorligi, tafakkur jarayonlari, tasavvuri, kuzatuvchanligi, emotsional tajribasi va shaxsiy munosabatlar tizimi bilan bog'liq bo'ladi. Shu yoshda bolalarda ichki nutqning shakllanishi, nutqiy motivatsiya, nutqiy faollik, o'z fikrini mustaqil ifodalash ehtiyoji kuchaya boradi. Vygotskiy, Luriyaning psixolingvistik qarashlariga ko'ra, monologik nutqning shakllanishi bolaning ijtimoiy faoliyati va kattalar bilan muloqot jarayonidagi nutqiy tajribaga tayanadi. Kattalar nutqi, tarbiyachi tomonidan berilgan nutqiy namunalar, badiiy adabiyot, drammatizatsiya, o'yin jarayonidagi muloqot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali beriladigan topshiriqlar bolaning nutqiy faolligini oshiradi va monologik nutq ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, bu jarayonda bolaning emotsional holati, o'ziga ishonchi, irodaviy faolliги, hayotiy tajribasi va motivatsiyasi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda monologik nutqni rivojlantirishda interfaol metodlar alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular bolani faol fikrlashga, mustaqil nutq tuzishga, izchil bayon qilishga undaydi va o'qituvchi-bola, bola-bola o'rtasidagi muloqotni jonlantiradi. Interfaol metodlar jarayonida bola nafaqat tinglovchi yoki kuzatuvchi, balki faol ishtirokchi bo'ladi, syujet yaratadi, o'z fikrini ifodalaydi, asoslaydi va turli kommunikativ vaziyatlarda monologik nutqni shakllantiradi. Ushbu yondashuvlar bolalarning tafakkurini faollashtiradi, emotsional holatini yaxshilaydi, nutqqa qiziqishni orttiradi va o'yin orqali o'rganish foydalaniladi.

Interfaol o'yinlardan foydalanish monologik nutqni rivojlantirishning eng samarali yo'llaridan biridir. Syujetli-rolli o'yinlar jarayonida bola o'ziga berilgan rolga mos nutq tuzadi, voqealarni izchil bayon etadi, syujetni davom ettiradi. "Drammatizatsiya" metodida bola badiiy asardagi qahramon sifatida gapiradi, bu esa uning nutqiy faolligini, emotsional ifodaviyligini oshiradi[3]. Rasm asosida hikoya tuzish, ketma-ket rasmlar orqali voqeani qayta yaratish, "Kim tez va aniq ayta oladi?" kabi

o'yinli topshiriqlar ham bolaning nutqini mustaqil rejalashtirish va bayon qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Rivojlantiruvchi texnologiyalardan — multimediali taqdimotlar, interaktiv doska, audiovizual vositalardan foydalanish bolalarning diqqatini jalb etadi, voqealarni idrok etishni osonlashtiradi hamda ular asosida monolog tuzish jarayonini qiziqarli qiladi[4]. Interfaol metodlarning yana bir afzalligi shundaki, ular bolalarda erkin nutqiy muhit yaratadi, har bir bola o'z fikrini bimalol ifodalashi uchun imkon beradi, bu esa monologik nutqning tabiiy ravishda rivojlanishiga olib keladi.

Umuman olganda, interfaol metodlar maktabgacha yoshdagi bolalarda monologik nutqni bosqichma-bosqich, tizimli, samarali va o'yin asosida shakllantirishga imkon yaratadi. Ular bolalarda izchil bayon qilish ko'nikmasini shakllantiribgina qolmay, balki tafakkur, tasavvur, diqqat, eslab qolish, emotsional ifoda va nutq madaniyatini ham rivojlantiradi.

Nutqning yangi shakli — monologik tarzda xabar qilish, ko'rgan va eshitganlari to'g'risida hikoya qilish paydo bo'lad[5]. Bolalarni hikoya qilishga o'rgatish jarayonida barkamol tarbiya berishning xilma-xil masalalarini hal qiladi, aqliy rivojlanishga yordam beradi. Hikoya qilib berishda mantiqiy tafakkur, diqqat rivojlanadi, nutq grammatik jihatdan shakllangan bo'lib, o'zini tutish, jamoa oldida so'zga chiqish malakasi hosil bo'ladi. Shu munosabat bilan maktabgacha ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya dasturida bolalarni hikoya qilishga o'rgatish bo'yicha har bir yosh guruhlariga ish vazifalari va mazmuni belgilab berilgan. Q.Shodiyevaning fikrlariga tayanadigan bo'lsak "O'rta guruhlarda hikoya qilishga o'rgatish vazifalari va ularning mazmuni ancha murakkablashadi. Ushbu guruh bolalari birinchi yarim yillikda tanish hikoya va ertaklarni mustaqil holda qayta hikoya qilishga, asar qahramonlarining suhbatini ifodali so'zlab berishga o'rgatiladi"

Maktabgacha ta'lim tashkilotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish bolalar nutqini, ayniqsa monologik nutqni rivojlantirishda zamonaviy, samarali va qiziqarli pedagogik yondashuvlardan biri hisoblanadi. AKT vositalari bolalarda idrok, tasavvur, diqqat, eshituv va ko'ruv funksiyalarini faollashtiradi, bu esa izchil va mustaqil nutq yaratish uchun qulay sharoit yaratadi. Zamonaviy texnologiyalar orqali bolalar mavzuni vizual, audiovizual va interaktiv tarzda qabul qiladi, bu esa ular tasavvurini boyitadi va monologik nutq uchun zarur bo'lgan obrazlar, mantiqiy bog'lanishlar va mazmunli fikrlarni shakllantirishga yordam beradi.

AKT vositalari — multimedia taqdimotlari, animatsion videolar, slaydlar, interaktiv o'yinlar, audio yozuvlar, virtual rasmlar, interaktiv doskalar va maxsus ta'limiy dasturlar monologik nutqni rivojlantirish jarayonini yanada samarali qiladi. Masalan, ketma-ket berilgan animatsion lavhalar asosida bola voqeani izchil bayon qiladi, rasmlar slaydlar ketma-ketligi unga reja asosida hikoya tuzish imkonini beradi, multimedia hikoyalari esa bola uchun mazmunni eslab qolishni osonlashtiradi. Bu vositalar yordamida bola syujetni tasavvur qilibgina qolmay, balki uni mustaqil ravishda monolog shaklida ifodalay oladi.

Interaktiv o'yinlar, masalan, "voqeani davom ettir", "qahramon nima dedi?", "ertakni yakunla", "rasm asosida hikoya yarat", "ketma-ketlikni top" kabi topshiriqlar bolalarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Interaktiv doska orqali rasm chizish, predmetlarni joylashtirish, personajlarni harakatlantirish kabi mashg'ulotlar esa bolaning tasavvuri va tafakkuriga ijobiy ta'sir ko'rsatib, monologik nutq uchun zarur bo'lgan mantiqiy bog'lanishni shakllantiradi.

AKTdan foydalanish bolaning emotsional holatini ham ijobiy yo'nalishga o'zgartiradi — bola o'rganish jarayonini qiziqarli, dinamik va zavqli deb qabul qiladi, bu esa nutqiy faollikni kuchaytiradi. Raqamli vositalarning yana bir afzalligi shundaki, ular individual yondashuvni ta'minlaydi: bola o'z tezligiga mos ravishda materialni ko'rishi, takrorlashi va mustaqil ravishda fikr yuritishi mumkin. Shuningdek, audio yozuvlar va video ertaklar bolalarning fonematik eshituvini,

tovushlarni ajrata olish qobiliyatini kuchaytiradi, bu esa nutqning fonetik jihatdan to'g'ri shakllanishiga izchil ta'sir qiladi.

Pedagog uchun AKT vositalaridan foydalanish o'quv jarayonini boshqarishni osonlashtiradi, topshiriqlarni xilma-xil ko'rinishda taqdim etish imkonini beradi. Tarbiyachi multimedia resurslari yordamida bolalarga yorqin, jonli, tematik materiallar taklif qilishi, monologik nutqni bosqichma-bosqich shakllantirish uchun turli didaktik vazifalar yaratishi mumkin.

Umuman olganda, AKT vositalari maktabgacha yoshdagi bolalarda monologik nutqni rivojlantirishning samarali, zamonaviy va innovatsion yo'llaridan biri bo'lib, ular bolaning idroki, tasavvuri, mantiqiy fikrlashi va mazmunli nutq yaratish ko'nikmasini kuchaytiradi. AKT vositalari monologik nutqning shakllanishiga nafaqat osonlik yaratadi, balki uni yanada qiziqarli, mazmunli va yuqori samarali pedagogik jarayon sifatida tashkil etishga imkon beradi.

Nazariy tahlil va taqqoslashlar shuni ko'rsatadiki, monologik nutqni samarali shakllantirish uchun bolaga boy nutqiy muhit yaratish, o'yin va AKTga asoslangan topshiriqlarni muntazam tashkil etish, har bir bola imkoniyatini inobatga olgan holda individual yondashuvni ta'minlash lozim. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar uyg'unligini ta'minlagan holda tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarda ravon, izchil va mantiqiy bog'langan monologik nutqning shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotida monologik nutqni rivojlantirish jarayoni kompleks yondashuvni talab qiladi. Pedagogning metodik savodxonligi, texnologik kompetensiyasi, bolalar bilan muloqot madaniyati va innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanishi bu yo'nalishdagi ishning natijadorligini belgilaydi. Shu sababli, nutqni rivojlantirish jarayonida an'anaviy va innovatsion usullarni uyg'unlashtirgan holda, o'yin, texnologiya va ijodkorlikka asoslangan mashg'ulotlarni tashkil etish bolalarda monologik nutqning tabiiy, izchil va mazmunli ravishda rivojlanishiga imkon yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Qodirov F.K. " Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruhiy omilla " Toshkent- 2016
2. Babayeva D.R " Nutq o'stirish metodikasi " Toshkent- 2019
3. Erxonova N , Róziyeva Z " Tárbiyachi kitobi nutq o'stirish " T- 2021
4. Qodirova F , Qayumova V.X " Nutq o'stirish" T- 2022
5. Babayeva D.R " Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi " T- 2018